

Talabalar uchun tarix fanidan yangi darslik chop etildi

O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O`zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo`yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi hamda oliy o`quv yurtlari vakillari ishtirokida talabalar uchun ilk bor "O'zbekistonning eng yangi tarixi" darsligi chop etildi.



Etakchi xorijiy universitetlarning akademik va o`quv nashrlari tajribasini o`rganish asosida hamda keng doiradagi materiallarni jalb qilgan holda ushbu darslikda O`zbekiston rivojlanishining asosiy yo`nalishlari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy transformatsiyasida yuz berayotgan o`zgarishlar, uning dunyo siyosati va iqtisodiyoti globallashuvi sharoitidagi xalqaro aloqalari tahlil qilingan. Ushbu darslik muallifi O`zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo`yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi direktori t.f.d., prof. M.A. Raximov.